



10- laboratoriya ishi

Alyuminiy gidroksidni olish, uning kislota va ishqorlar bilan o'zaro ta'sirlashuvini o'rganish

1. Ikkita probirkaning biriga alyuminiy nitratning 0,5 M eritmasidan 3 tomchi va ikkinchisiga o'yuvchi natriyning 1 M eritmasidan 3 tomchi quying. So'ngra ularni o'zaro aralashtiring. Alyuminiy gidroksid cho'kmasi hosil bo'ladi. Uni ikkita probirkaga bo'lib, biriga xlorid kislotaning 1 M eritmasidan 6 tomchi, ikkinchisiga esa o'yuvchi natriyning 1 M eritmasidan shuncha hajmda quying. Cho'kmaning erishini kuzating.

Mustaqil xulosa uchun topshiriq

Hosil bo'lgan mahsulotlarning reaksiya tenglamalarini molekulyar, ionli va qisqartirilgan ionli ko'rinishda yozing.